

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

1-maxsus  
son (6-jild)

**2026**

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING  
DOLZARB MUAMMOLARI**

***№ S/1 (6) – 2026***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**TOSHKENT-2025**

## **BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

## **TAHRIR HAY'ATI:**

### *07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

### *08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

### *09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

### *10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

#### *12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

#### *13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

#### *19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

#### *22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

#### *23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

---

## OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

---

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

## **Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

## **Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

|                                                                                                                                                                                        |       |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------|
| <i>Алимджанов Бахтиёр Абдихакимович</i><br>«НА ЭТОМ СЪЕЗДЕ ИДЕЙНОМУ РАЗБРОДУ НУЖНО ПОЛОЖИТЬ КОНЕЦ»,<br>ИЛИ КАК СОЮЗ АРХИТЕКТОРОВ УЗБЕКИСТАНА НАЧАЛ МЫСЛИТЬ .....                       | 11-17 |
| <i>Esanova Nilufar</i><br>O'ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA O'RTASIDA OG'IR SANOAT TARMOQLARINING<br>RIVOJLANISHIDAGI O'RNI .....                                                          | 18-21 |
| <i>Muminov Azizbek Ziyoviddinovich</i><br>JIZZAX VILOYATI JOYLASHGAN TABIIY OBYEKT LARNING TARIXIY-GEOGRAFIK<br>TASNIFI VA TURISTIK SALOHİYATI .....                                   | 22-27 |
| <i>Ne'matov Xumoyun To'liqin o'g'li</i><br>SHOHRUX MIRZO VA USMONIYLAR O'RTASIDAGI DIPLOMATIK ALOQALAR TARIXI .....                                                                    | 28-33 |
| <i>Khudoyorov Noyibjon Maripjonovich, Ruziboev Samandarbek Sobirjon o'g'li</i><br>THE POLICY OF DEKULAKIZATION AND CONFISCATION OF PEASANT<br>HOUSEHOLDS IN KAZAKHSTAN, 1929–1933..... | 34-43 |
| <i>Шамшетдинова Дилафруза Исмайлловна</i><br>ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ПРОГРЕСС И ТРАНСФОРМАЦИЯ КУЛИНАРНЫХ<br>ТРАДИЦИЙ В СЕЛЬСКОЙ МЕСТНОСТИ КАРАКАЛПАКСТАНА<br>(1960-1980 ГГ.).....              | 44-48 |

**08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

|                                                                                                                                                                         |       |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------|
| <i>Kasimova Gulyar Axmatovna, Xaydarova Durdona Shuxratjon qizi</i><br>DAVLAT TIBBIY SUG'URTASI MEXANIZMIDA DORI-DARMON XARIDLARINING<br>SAMARADORLIGINI OSHIRISH ..... | 49-56 |
| <i>Abdullayev Abdulla Fayzulla o'g'li</i><br>AXBOROT MAHSULOTLARI BIZNESINI RIVOJLANTIRISHNING KO'P OMILLI<br>EKONOMETRIK MODEL: OLS VA ARDL TAQQOSLASH .....           | 57-64 |

**09.00.00 – FALSAFA FANLARI**

|                                                                                                                                                      |       |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------|
| <i>Tashanov Abduxoliq</i><br>BUZG'UNCHI G'OYALARINING IJTIMOIIY-SIYOSIY VA AXLOQIY MUAMMOLARI .....                                                  | 65-71 |
| <i>Jo'rayev Ahmad Muhammadiyevich</i><br>TASAVVUF TA'LIMOTIDA DINIY BAG'RIKENGLIK VA MILLATLARARO TOTUVLIK<br>MASALALARI .....                       | 72-78 |
| <i>Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna</i><br>TASAVVUFNING FALSAFIY JIHATLARI XUSUSIDA.....                                                            | 79-84 |
| <i>Ibraximova Dilorom Saloydinovna</i><br>RAQAMLI MUHITDA ESTETIK IDROKNING XUSUSIYATLARI.....                                                       | 85-88 |
| <i>Muxammadiyeva Oliyana Narzullayevna</i><br>OILA INSTITUTINI MUSTAHKAMLASH KONSEPSIYASI - OILA VA JAMIYAT<br>IJTIMOIY BARQARORLIGINING MEZONI..... | 89-92 |

|                                                                                                                                                                      |         |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Matchanova Barno</i><br>MAFKURA VA MILLIY MAFKURA TUSHUNCHALARI:<br>MAZMUN-MOHİYATI VA IJTIMOİY FUNKSIYALARI.....                                                 | 93-98   |
| <i>Uraqov Nodirbek Boboqulovich</i><br>BAG'RIKENGLIK G'OYASINING TASAVVUFİY-FALSAFIY TAHLILI<br>(Maxdumi A'zamning "Risolai tanbeh ul-ulamo" asari asosida).....     | 99-104  |
| <i>Raxmatov Alisher Obidovich</i><br>IJTIMOIY FALSAFADA INTEGRATSIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....                                                                | 105-108 |
| <i>O'sarkulov Oybek Murodilovich</i><br>MILLIY IDENTIKLIKNING TRANSFORMATSIYASI VA IJTIMOİY INTEGRATSIYA:<br>O'ZBEKISTONDAGI KOREYS DIASPORASI TAJRIBASI.....        | 109-115 |
| <i>Fayziyev Xurshid Jumayevich</i><br>VOLTERNING "BAG'RIKENGLIK HAQIDA" ASARIDA JAN KALASNING QATL<br>ETILISHI VA UNING OQIBATLARINI AKS ETTIRILISHI .....           | 116-121 |
| <i>Shadmonova Zebiniso Amrulloevna</i><br>OILA SHAXS KAMOLOTINING ASOSIY IJTIMOİY MUHITI VA JAMIYAT<br>BARQARORLIGINING OMILI SIFATIDA.....                          | 122-126 |
| <i>Idiboyev Abror Jamolovich</i><br>JAMIYAT IJTIMOİY-MA'NAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA - YOSHLAR<br>HUQUQIY TARBIYASINING O'RNI .....                              | 127-130 |
| <i>Ahmadjonov To'liqinbek Akramjon o'g'li</i><br>RAQAMLI OLAMNING YOSHLAR ONGIGA TA'SIRI.....                                                                        | 131-136 |
| <i>Sodiqov Islombek Otabek o'g'li</i><br>RAQAMLI MADANIYAT TUSHUNCHASI VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI .....                                                        | 137-141 |
| <i>Abdurahimov Ravshanbek O'ktam o'g'li</i><br>HUQUQIY DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH SHAROITIDA YOSHLAR HUQUQIY<br>ONGINING SHAKLLANISH OMILLARI .....                   | 142-146 |
| <b>10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI</b>                                                                                                                                 |         |
| <i>Duvlaeva Nozigul Xolmuxammat qizi</i><br>INGLIZ VA O'ZBEK MATNLARIDA STILISTIK TASVIR VOSITALARI .....                                                            | 147-151 |
| <i>Зикруллаева Хусния Бахтияровна</i><br>СТРУКТУРА, ПРОИСХОЖДЕНИЕ И НОРМАТИВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ<br>ЗАИМСТВОВАННЫХ ТЕРМИНОВ В УЗБЕКСКОМ<br>НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКОМ ТЕКСТЕ..... | 152-156 |
| <i>Turdiyeva Dilorom Soliyevna</i><br>PEDAGOGICAL STRATEGIES FOR INCLUSIVE LEARNING .....                                                                            | 157-162 |
| <i>Eshmurotov Umidjon Temurovich</i><br>INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI AFORIZMLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI .....                                                     | 163-167 |
| <i>Avlayeva Saida Bozorovna</i><br>INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA COVID-19 PANDEMIYASI SHAROITIDA<br>SHAKLLANGAN KISHILAR JAMOALARINI IFODALOVCHI NEOLOGIZMLAR.....      | 168-172 |
| <i>Ubaydullaeva Dilfuza Akmal qizi</i><br>JURNALISTLARNI TAYYORLASHDA NUTQ MADANIYATI KOMPETENSIYALARINING<br>STRUKTURASI .....                                      | 173-181 |

|                                                                                                                                                                                                                          |         |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Alimova Shaxnoza Yaxshiboyevna</i><br>ASSOTSIIATIV TAJRIBA PSIXOLINGVISTIKA USULI SIFATIDA .....                                                                                                                      | 182-187 |
| <i>Xudayberganov Nizomaddin Uktambay o'g'li, Mansurova Shaxinabonu Najmiddin qizi</i><br>O'ZBEK TILIDA SON VA SIFAT SO'Z TURKUMLARINI POS TEGGLASH ASOSIDA<br>O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH TAMOIYILLARI ..... | 188-193 |
| <b>12.00.00 – YURIDIK FANLAR</b>                                                                                                                                                                                         |         |
| <i>Абдуллаева Дильдора Эльмуродовна</i><br>ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В СТАРТАП<br>ПРОЕКТЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН НА ПРИМЕРЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ<br>АКСЕЛЕРАТОРОВ И ИНКУБАТОРОВ.....                   | 194-198 |
| <i>Fayzullayeva Shaxlo Jumanioz qizi</i><br>THEORETICAL AND LEGAL ASPECTS OF INCLUSION OF COPYRIGHT OBJECTS IN<br>INTERNATIONAL TRADE.....                                                                               | 199-204 |
| <i>Qalandarov Aminjon Amondullayevich</i><br>KORPORATSIYALARDA AFFILLANGAN SHAXSLAR INSTITUTINING HUQUQIY<br>TABIATI VA TARTIBGA SOLINISHI .....                                                                         | 205-212 |
| <i>Uralov Sarbon Sardorovich</i><br>JINOYAT-PROTSESSUAL QONUNCHILIKDA VIDEOKONFERENSALOQA ORQALI<br>TERGOV HARAKATLARINI TARTIBGA SOLISHNING UMUMIY SHARTLARI .....                                                      | 213-218 |
| <i>Xolmirzayev Muhsin Shavqiddin o'g'li</i><br>KRIMINOLOGIK PROGNOZLASHDA ANIQ FANLAR VA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA<br>TEKNOLOGIYALARI YUTUQLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI .....                                          | 219-225 |
| <i>Dilboboyev Nozimbek</i><br>XORIJIY (CHET EL) VA MAHALLIY (MILLIY) INVESTITSIYA TUSHUNCHALARINING<br>ILMIY-NAZARIY TAVSIFI, ULARNING BOZOR IQTISODIYOTIDAGI<br>O'RNI VA AHAMIYATI.....                                 | 226-232 |
| <i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i><br>ATOM ENERGIYASINING XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING<br>XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI .....                                                                                         | 233-240 |
| <i>Asadov Shahridin Faxriddin o'g'li</i><br>FUQAROLIK HUQUQIDA XIZMATLARNING HUQUQIY TABIATI:<br>KONSALTING XIZMATLARI MISOLIDA.....                                                                                     | 241-243 |
| <i>Абдужампоров Шахбоз Музаффар ўғли</i><br>НЕСАНКЦИОНИРОВАННЫЙ ДОСТУП И ХИЩЕНИЕ ДЕНЕЖНЫХ СРЕДСТВ С<br>ПЛАСТИКОВЫХ КАРТ: УГРОЗЫ, МОДЕЛИ ПРЕСТУПЛЕНИЙ И КОМПЛЕКСНЫЕ<br>МЕРЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ.....                          | 244-253 |
| <i>Хасанов Турсунпулат Шавкатжон ўғли</i><br>МЕЖДУ АЛГОРИТМОМ И ЗАКОНОМ: ПРОБЛЕМА ПРАВОВОЙ<br>ИДЕНТИФИКАЦИИ СМАРТ-КОНТРАКТОВ В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ .....                                                                      | 254-259 |
| <i>Kadirova Moxigul Xamitovna</i><br>ZAMONAVIY DAVLAT BOSHQARUVI VA ADOLATLI SUD-HUQUQ TIZIMI .....                                                                                                                      | 260-262 |
| <i>Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna</i><br>UCHINCHI RENESSANS SHAROITIDA VATANPARVARLIK<br>G'OYASINING MA'NAVIY-HUQUQIY MOHIYATI<br>(O'zbekiston tajribasi va xorijiy yondashuvlar qiyosida).....                      | 263-269 |

|                                                                                                                                                                                                                          |         |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Shagilov Pulatbek Koptleuovich</i><br>JAMOAT XAVFSIZLIGIGA TAJOVUZ QILUVCHI HUQUQBUZARLIK LARGA QARSHI<br>KURASHISH BO'YICHA ILG'OR XORIJIY MAMLAKATLARINING TAJRIBASI TAXLILI .....                                  | 270-276 |
| <i>Kubaeva Ismigul Farkhod qizi</i><br>PARTY AUTONOMY VS CONSUMER PROTECTION IN INTERNATIONAL<br>E-COMMERCE: THE CASE OF UZBEKISTAN IN COMPARATIVE PERSPECTIVE .....                                                     | 277-283 |
| <i>Нормуродова Азиза Азимжон кизи</i><br>ПОНУЖДЕНИЕ ЛИЦА К ВСТУПЛЕНИЮ В ПОЛОВУЮ СВЯЗЬ:<br>ПРАВОВАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ОБЪЕКТИВНОЙ СТОРОНЫ ПРЕСТУПЛЕНИЯ.....                                                                  | 284-295 |
| <i>Toshpo'latov Islom Otavulla o'g'li</i><br>O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KADRLAR BILAN ISHLASH SIYOSATIDA MA'NAVIY-<br>MA'RIFIY ISHLAR VA UNI ICHKI ISHLAR ORGANLARI TIZIMIGA TA'SIRI .....                               | 296-301 |
| <i>Аллашова Шийринай Турсынбаевна, Каримова Мадина Мирзаджоновна</i><br>ВИКТИМНОЕ ПОВЕДЕНИЕ ЖЕРТВ БЫТОВОЙ ПРЕСТУПНОСТИ И ЕГО<br>ПРОФИЛАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ .....                                                          | 302-307 |
| <i>Lutfullayeva Feruza Boboqulovna</i><br>HUQUQIY DAVLAT KONSEPSIYASINING ZAMONAVIY NAZARIY YONDASHUVLARI .....                                                                                                          | 308-312 |
| <i>Abdugaffarov Davronbek Dilshod o'g'li</i><br>SHARTNOMALARNI AMALGA OSHIRISH USTIDAN SAMARALI PARLAMENT NAZORATI:<br>O'ZBEKISTONDA XALQARO TIJORAT SHARTNOMALARIDA TARAFLARNING ERK<br>MUXTORIYATINI KUCHAYTIRISH..... | 313-317 |
| <i>Jalilov Ravshanjon Abdukayumovich</i><br>INSON A'ZOLARI VA TO'QIMALARINING NOQONUNIY AYLANMASI:<br>JINOIY-HUQUQIY VA QIYOSIY TAHLIL .....                                                                             | 318-329 |
| <i>Muxtorov Muhammad Amin Mirkomil o'g'li</i><br>MULK HUQUQINI MUHOFAZA QILISH ICHKI ISHLAR ORGANLARINING FAOLIYATI.....                                                                                                 | 330-337 |
| <i>Karimov Ulugbek Hakimjonovich</i><br>LEGAL FOUNDATIONS OF PROSECUTORIAL SUPERVISION IN ENSURING<br>THE ALLOCATION, USE, AND PROTECTION OF LAND PLOTS IN THE AGRARIAN<br>SECTOR OF UZBEKISTAN .....                    | 338-343 |
| <i>Mirabdullayev Maqsudjon Mahmudjon o'g'li</i><br>MASHINALI O'QITISH USULLARI ASOSIDA XOSTNING XAVFSIZLIGINI BAHOLASH,<br>MODEL VA ALGORITMLARINI ISHLAB CHIQISH.....                                                   | 344-349 |
| <i>Utebaev Salamat Maqsetbay o'g'li, Dauletbaeva Aynur Baxramovna</i><br>OILAGA QARSHI JINOYATLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI<br>VA ULARNING OLDINI OLISH.....                                                          | 350-354 |
| <i>Tillayev Ikrom Rustamjonovich</i><br>HUQUQBUZARLIK LAR PROFILAKTIKASINI BELGILAB BERUVCHI<br>UMUMIY VA SOHAVIY-HUQUQIY HUJJATLAR TAHLILI .....                                                                        | 355-362 |
| <i>Xoshimova Nilufar Zafarjon qizi</i><br>O'ZBEKISTONDA MEHNAT MUNOSABATLARIDA MIGRATSIYA MUNOSABATLARI.....                                                                                                             | 363-366 |

### 13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

|                                                                                                                                                                                   |         |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Rahmonova Nilufar Najmiddin qizi</i><br>BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI FORSAYT TADQIQOT METODLARI ASOSIDA KREATIV<br>KOMPETENSIYALARI TA'LIM TRAYEKTORIYASINI TASHKIL ETISH .....    | 367-371 |
| <i>Abdurasulova Dilrabo Tolkunjon qizi</i><br>KOMPARATIVISTIKISTIK YONDASHUV TALABALARNING MADANIYATLARARO<br>KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSI SIFATIDA..... | 372-380 |
| <i>Таджиходжаева Эльвира Рашидовна</i><br>ЦИФРОВАЯ ГРАМОТНОСТЬ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ КАТЕГОРИЯ<br>В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ НЕПРОФИЛЬНЫХ СПЕЦИАЛЬНОСТЕЙ.....                     | 381-387 |
| <i>Ravshanova Gulnoza Burxonovna</i><br>5-SINF O'QUVCHILARINING ANTROPOMETRIK TOTAL KO'RSATKICHLARINI<br>O'RGANISH BO'YICHA TADQIQOT BOSHIDA OLINGAN NATIJALAR TAHLILI.....       | 388-393 |
| <i>Mirzaakhmedova Makhliyo Yuldashevna</i><br>THE IMPACT OF AUTHENTIC MATERIALS ON TEACHING BUSINESS<br>WRITING SKILLS TO ESP STUDENTS .....                                      | 394-400 |

**Received:** 03 January 2026  
**Accepted:** 17 January 2026  
**Published:** 30 January 2026

*Article / Original Paper*

## **POSSIBILITIES OF USING THE ADVANTAGES OF EXACT SCIENCES AND INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN CRIMINAL FORECASTING**

**Kholmiraev Mukhsin Shavqiddin o'g'li**

Senior Assistant to the Prosecutor of the City of Karshi  
Lawyer, 2nd Degree  
Independent Research Fellow  
Academy of Law Enforcement Agencies

**Abstract.** Crime forecasting is a pressing issue in social and legal fields today. This process involves scientific analysis of the future state of crime, dangerous areas, types and forms using modern mathematics, statistics, probability theory and information and communication technologies (ICT). Predictive policing systems, GIS, CCTV, AI, big data and video/sensor monitoring platforms allow for real-time crime detection, patrol targeting and efficient resource allocation.

**Keywords:** criminological forecasting, crime, Predictive policing, GIS (Geographic Information System), CCTV, Artificial Intelligence (AI), Big data, Mathematical modeling, Statistical analysis, Hot-spot, RTCC, DAS (Domain Awareness System), Probability theory, Time-series models, criminogenic factors.

## **KRIMINOLOGIK PROGNOZLASHDA ANIQ FANLAR VA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI YUTUQLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI**

**Xolmirzayev Muhsin Shavqiddin o'g'li**

Qarshi shahar prokurorining  
katta yordamchisi 2-darajali yurist  
Huquqni muhofaza qiluvchi organlar  
akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya.** Jinoyatchilikni kriminologik prognozlash bugungi kunda ijtimoiy va huquqiy sohalarda dolzarb masala hisoblanadi. Ushbu jarayon zamonaviy matematik, statistika, ehtimollik nazariyasi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) yordamida jinoyatlarning kelajakdagi holati, xavfli hududlar, tur va shakllari bo'yicha ilmiy tahlilni o'z ichiga oladi. Predictive policing tizimlari, GIS, CCTV, AI, big data va video/sensorli monitoring platformalari jinoyatchilikni real vaqt rejimida aniqlash, patrullarni yo'naltirish va resurslarni samarali taqsimlash imkonini beradi.

**Kalit so'zlar:** kriminologik prognozlash, jinoyatchilik, Predictive policing, GIS (Geografik axborot tizimi), CCTV, Sun'iy intellekt (AI), Big data, Matematik modellash, Statistik tahlil, Hot-spot, RTCC, DAS (Domain Awareness System) Ehtimollik nazariyasi, Time-series modellar, kriminogen omillar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI1Y2026N36>

Jinoyatchilikni oldini olish va uning kelajakdagi holatini prognozlash bugungi kunda ijtimoiy va huquqiy sohalarda dolzarb masala hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyot davrida huquqni muhofaza qiluvchi organlar nafaqat jinoyat sodir bo'lishini aniqlash, balki xavfli hududlarni

oldindan belgilash, jinoyatning tur va shakllarini prognoz qilish imkoniga ega bo'lishlari zarur. Bunda aniq fanlar (matematika, statistika, ehtimollik nazariyasi, informatika) va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) yutuqlaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jinoyatchilikning kelajakdagi holati, tendensiyalari va xavfli zonalarini oldindan aniqlashga qaratilgan ilmiy faoliyatdir.

Internetning mavjudligi bilan OAV dunyoda yangiliklarning (to'g'ri yoki soxta bo'lsin), o'yin-kulgining, dam olishning asosiy manbaiga aylandi. Televideniye, bosma nashrlar, Facebook, Twitter, bloglar va onlayn forumlarda mavjud bo'lgan boshqa maqolalar bu dunyoda sodir bo'layotgan jinoyatlar haqidagi jamoatchilik fikri va tushunishiga katta ta'sir ko'rsatdi [1; 63 b.].

Jinoyatchilikning umumiy ahvolini va tendensiyalarni bilishda, kriminologik rivojlanish qonunlari va jinoyatlarni kriminologik prognozlashda raqamli kriminologiya alohida o'rin tutadi.

I.V.Bestujev-Ladaning fikricha, prognozlash kelajak haqidagi bayonot emas, balki zamonaviy ilmiy vositalardan foydalangan holda muayyan hodisa yoki jarayonning rivojlanish istiqbollari tizimli o'rganishdir [2;14 b.].

Rossiyalik olim V.A.Oleynikning fikricha, jinoyatchilikni prognozlashda matematik modellar va statistik metodlardan foydalanish jinoyatchilik darajasining o'zgarishini aniqroq tahlil qilish imkonini beradi. U matematik usullar yordamida jinoyatlarni tahlil qilish va kelajakda ularning ehtimolini baholashni taklif qiladi [3;15 b.].

E.G.Babayev jinoyatchilikni prognozlashda matematik statistika va ehtimollik nazariyasidan foydalanish zarurligini ta'kidlaydi [4;18 b.].

L.A.Levin kriminologiyada matematik modellashtirishni ilgari surib, jinoyatlarning paydo bo'lish mexanizmini o'rganishda matematik usullar muhim ekanligini aytadi. Shuningdek, u jinoyatchilikni kamaytirishga yo'naltirilgan profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqishda matematik prognozlashning ahamiyatini qayd etadi [5;11.].

Amerikalik M.Friedmanning tadqiqotlarida matematik usullar yordamida jinoyatchilikni oldindan ko'rish va uning o'sishini bashorat qilish mumkinligi ko'rsatib berilgan. U kriminologik ma'lumotlarni modellashtirishda statistik tahlil va kompyuter algoritmlaridan keng foydalanishni taklif qiladi [6;25 b.].

Matematika jinoyatchilikni tahlil qilish va prognozlashda asosan ehtimollik, statistik modellar va optimallashtirish metodlari orqali qo'llaniladi. Hodisalar ehtimoligini hisoblash imkoniyati orqali turli jinoyatlarning kelgusi davrlarda sodir bo'lish ehtimolini aniqlash mumkin. Shuningdek, matematik modellar yordamida jinoyat tarmoqlari, patrullar soni yoki resurslarni samarali taqsimlash kabi masalalarni optimallashtirish mumkin. Misol uchun, o'tgan besh yil davomida ma'lum hududda sodir bo'lgan o'g'riliklar, talonchilik yoki boshqa jinoyat turlari soni asosida ehtimollik modellarini qurish va kelgusi oylar yoki choraklar uchun prognoz ishlab chiqish mumkin.

Agar biz yil davomida sodir etilgan jinoyatlarning (huquqbuzarlarning) umumiy sonini asos sifatida (100%) oladigan bo'lsak, u holda bizni qiziqtirgan har bir kriminogen omil foizda (qism yoki ball) ifodalangan nisbatan barqaror o'lchovni oladi. Turli kriminogen omillarning o'ziga xos og'irliklari tasodifiy o'zgaruvchilar taqsimotining universal qonunini aks ettiradi. Natijada, shaxsning keyingi jinoiy xatti-harakati haqida taxmin qilish mumkin [7; 312 b.].

R.Buranova ichki ishlar organlari xodimlarining faoliyatini tahlil qilish natijasida, tahliliy faoliyat bilan shug'ullanadigan ichki ishlar organlari xodimlarining prognoz qilish amaliyotiga Microsoft Excel dasturiy ta'minoti rejimida kompyuter prognozidan foydalanishni kiritishni taklif etgan [8; 155 b.].

Biroq, prognoz qilish amaliyotiga Microsoft Excel dasturiy ta'minoti rejimida kompyuter prognozidan foydalanish muayyan natija berishi mumkin emas. Unda jinoyatchilikning mavjud statistik ko'rsatkichlarini kiritish orqali kelgusi yillardagi taxminiy ko'rsatkichlarni berish mumkin. Bu ko'rsatkichlar matematik qoidalar asosida bo'lib, unda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va boshqa bir qator asosiy omillar nazarda tutilmaydi.

XX asrning 50-yillarda o'tgan atoqli kibernetikachisi N.Viner ta'kidlaganidek, "agar matematika uning tayanchi bo'lib xizmat qilmasa, u holda kibernetika ham sotsiologiya ham boshqa ijtimoiy fanlarning rivojlanishi murakkabdir [9; 10 b.].

Kriminologiya shaxs, uning alohida turlari va guruhlari, jinoyatchining shaxsiyati, jabrlanuvchining portretini yaratish, jinoyatlar va xavfli guruhlarni aniqlash, ularning ommaviy statistik kuzatishlarida jinoyatni belgilovchi omillarni o'rganishi sir emas. Ushbu omillarni tahlil qilish, umumlashtirish va talqin qilishni statistik va matematik tadqiqot usullarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Matematik prognozlash usullari o'zining obyektivligi, ishonchliligi va olingan natijalarning aniqligi bilan ajralib turadi. Garchi, yuridik fanda matematikani o'rganish g'ayritabiiy ko'rinsa-da, kriminologiyada, kriminologik prognozlashda matematik modellashtirish yangilik emas, shunga qaramay, vaqt o'tishi bilan kuzatilgan obyektning ishlashidagi chizgilarini aniqlash imkoni mavjud.

Matematik usullaridan foydalanish muayyan hududdagi jinoyatchilik darajasini pasaytirish uchun bilvosita chora-tadbirlar imkoniyatlarini aniqlashga yordam beradi. Jinoyatni prognozlashda matematik modellashtirish uning mintaqadagi rivojlanishini va unga qarshi kurash usullarini kriminogen va ant-kriminogen jarayonlar va hodisalar majmuasini hisobga olgan holda tizimli ravishda ko'rish imkonini berdi.

Jinoyatchilikni kriminologik prognozlash jarayonida stoxastik, Regressiya tahlili, Time-series, Markov zanjirlari, Bayes usullari, Optimallashtirish va integer programming kabi modellardan keng foydalaniladi.

Jinoyatchilikni kriminologik prognozlashda ehtimollik nazariyasi va stoxastik modellar hududlar bo'yicha jinoyat sodir bo'lish ehtimolini aniqlash va resurslarni taqsimlashda asosiy vosita hisoblanadi. Regressiya tahlili jinoyat ko'rsatkichlari bilan hududiy, ijtimoiy va iqtisodiy omillar o'rtasidagi bog'liqlikni ochib beradi, vaqt qatorlari modellar esa (ARIMA, SARIMA) jinoyatlarning vaqt bo'yicha o'zgarishi va mavsumiy tendensiyalarni aniqlashda qo'llaniladi. Markov zanjirlari jinoyatlarning hududiy tarqalish ketma-ketligini modellashtirsa, Bayes usullari yangi ma'lumotlar asosida prognozlarni dinamik yangilash imkonini beradi. Optimallashtirish va integer programming metodlari esa patrullar marshrutlari va resurslarni maksimal samarali taqsimlashga xizmat qiladi.

Fizika jinoyatchilik hodisalarini tarqalish va dinamik tizim sifatida modellashtirishga yordam beradi. Masalan, diffuziya yoki propagatsiya nazariyalari orqali jinoyat hodisalari qanday hududlarda tez tarqalishini, jinoyatchilik tarmoqlari va ularning o'zaro aloqalarini aniqlash mumkin. Bu usul jinoyatchilikning "harakat yo'nalishi" va "tezligi"ni tahlil qilish

imkonini beradi. Masalan, talonchilik yoki narkotik tarmoqlarining hududiy tarqalishini fizika modellaridan foydalangan holda prognozlash mumkin.

Geometriya va fazoviy tahlil hududiy xavfni aniqlash va kartografik ko'rinishda aks ettirish imkonini beradi. Masofa, qamrov, zonal analiz va GIS (Geografik Axborot Tizimlari) yordamida jinoyatlarning markazlari, xavfli zonalar va optimal patrul marshrutlarini aniqlash mumkin. Masalan, o'g'rilik yoki talonchilik ko'p sodir bo'lgan hududlar atrofidagi xavfli zonalar kartada belgilanadi.

Statistika katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish va hodisalar orasidagi bog'liqliklarni aniqlashda eng qulay vosita hisoblanadi. Parametrik va no-parametrik metodlar yordamida jinoyatlarning turli xil xususiyatlari va ular orasidagi o'zaro ta'sirlarni o'rganish mumkin. Shu bilan birga regressiya va korrelyatsion tahlillar orqali kelgusidagi jinoyat ko'rsatkichlarini bashorat qilish imkoniyati mavjud. Asosan jinoyat turlari va hududlar orasidagi korrelyatsiyani aniqlash, masalan, qaysi hududlarda o'g'rilik, talonchilik yoki boshqa jinoyatlar ko'proq sodir bo'lishini tahlil qilishda keng foydalaniladi.

Shuningdek, jinoyatchilikni kriminologik prognoz qilishda **Predictive analytics tizimlari** (PredPol/Geolitica, CompStat, PRECOBS va CAS), **Ma'lumotlarni tahlil va vizualizatsiya vositalari** (Visual Analytics for Sense-making in Criminal Intelligence, CrimeView), **Sun'iy intellekt va mashina o'rganish tizimlari**, **Video va sensorli kuzatuv tizimlari** (CCTV, gunshot detectors), **Kiberxavfsizlik va axborot tarmoqlarini monitoring qilish tizimlari** (IEM (Security Information and Event Management), IDS/IPS (Intrusion Detection/Prevention Systems), Dark Web Monitoring, SOC (Security Operations Centers), Social Media Intelligence (SOCMINT), AI & Machine Learning Cyber Analytics, Big Data Network Traffic Analysis), **Ijtimoiy tarmoqlar va ochiq manbalarni tahlil qilish** (Palantir Gotham, Dataminr, HunchLab, SOCMINT Tools, Talkwalker, Meltwater, Digimind, Brandwatch, Weibo, WeChat Monitoring) va **Real-time Monitoring va Domain Awareness** tizimlari (Real-Time Crime Centers, Domain Awareness System (DAS), ShotSpotter Integration, CAS (Crime Anticipation System), Domain Awareness, Smart Nation Domain Awareness, Urban Real-Time Monitoring Platforms Skynet, Sharp Eyes) kabi axborot kommunikatsiya vositalari va texnologiyalaridan keng foydalanib kelinmoqda.

*Predictive policing (bashorat qiluvchi politsiya) tizimlari* AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya va Niderlandiyada eng rivojlangan bo'lib, PredPol, CompStat, PRECOBS va CAS kabi dasturlar jinoyatlarni vaqt va makon bo'yicha prognozlashda keng qo'llaniladi. Ushbu tizimlar ehtimollik modellariga, vaqt qatorlari tahliliga, GIS va sun'iy intellektga asoslanib, patrullarni rejalashtirish va resurslarni samarali taqsimlashga xizmat qiladi [10; 14-15 b.]. Yevropa davlatlarida bu texnologiyalar qat'iy huquqiy va etik cheklovlar ostida joriy etilgan bo'lsa, Osiyo mamlakatlarida (Singapur, Yaponiya, Xitoy) real-time va AI asosidagi prognozlash tizimlari ustuvor hisoblanadi.

*Kriminologik prognozlashda ma'lumotlarni tahlil va vizualizatsiya qilish* vositalari jinoyatchilikning vaqt va makon bo'yicha qonuniyatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. AQShda CrimeView va CrimeStat dasturlari jinoyatlarni GIS asosida xaritalash, hot-spotlarni aniqlash va statistik tahlil qilishda keng qo'llaniladi [11]. Buyuk Britaniya va Yevropa davlatlarida ESRI CrimeAnalyst va SaTScan kabi vositalar fazoviy-vaqtli klasterlarni aniqlash hamda hududiy xavfni baholashda qo'llaniladi [12]. Kanada va Yevropa amaliyotida Rigel geografik profiling dasturi seriyali jinoyatlarni vizual tahlil qilishda qo'llaniladi [13].

Shuningdek, global miqyosda Tableau va Power BI kabi biznes-intellekt platformalari jinoyat statistikasi va prognoz natijalarini interaktiv vizual shaklda taqdim etish orqali boshqaruv qarorlarini qabul qilish samaradorligini oshirmoqda [14].

*Kriminologik prognozlashda video va sensorli kuzatuv tizimlari* AQSh, Buyuk Britaniya, Singapur va Xitoyda keng rivojlangan bo'lib, CCTV, akustik sensorlar, ANPR va AI video-analitika jinoyat xavfini real vaqt rejimida aniqlashga xizmat qiladi. Ushbu tizimlar sun'iy intellekt va GIS platformalari bilan integratsiyalangan holda jinoyatlarning vaqt va makon bo'yicha prognozini aniqlashtiradi hamda patrullarni tezkor va maqsadli joylashtirish imkonini beradi.

*Kriminologik prognozlashda kiberxavfsizlik va axborot tarmoqlarini monitoring qilish tizimlari* AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Niderlandiya va Singapurda keng rivojlangan bo'lib, SIEM, IDS/IPS, SOC va sun'iy intellekt asosidagi kiberanalitika vositalari orqali jinoyatlarning raqamli makondagi dinamikasi prognoz qilinadi. Ushbu tizimlar kiberjinoyatlarning oldini olish, ekstremizm va moliyaviy jinoyatlarni erta aniqlash hamda davlat xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

*Jinoyatchilikni kriminologik prognozlashda ijtimoiy tarmoqlar va ochiq manbalarni tahlil qilish* tizimlari AQSh, Buyuk Britaniya, Niderlandiya va Germaniyada keng qo'llaniladi. Palantir Gotham, Dataminr, HunchLab va SOCMINT platformalari ijtimoiy media va boshqa ochiq manbalardan ma'lumot yig'ib, AI va NLP algoritmlari yordamida jinoyat xavfini real-time prognoz qiladi [15]. Shu bilan birga, Singapur va Yaponiya kabi mamlakatlar Smart City va SNS monitoring tizimlari orqali xavfni oldindan aniqlash imkoniyatiga ega. Xitoyda Weibo va WeChat monitoring tizimlari davlat nazorati ostida ishlaydi va keng qamrovli OSINT tahlilini ta'minlaydi [16].

*Real-time Monitoring va Domain Awareness* tizimlari AQSh, Niderlandiya, Germaniya, Singapur va Xitoyda jinoyatchilikni kriminologik prognozlashda keng joriy etilgan. AQShda RTCC va DAS tizimlari CCTV, 911 chaqiruvlari, patrul va GPS ma'lumotlarini real-time integratsiyalaydi, hot-spot va risk asosida patrullarni boshqaradi [17]. Niderlandiya va Germaniyada tizimlar urban surveillance va AI alertlar bilan to'ldirilgan. Singapur va Yaponiya Smart City konsepsiyasi doirasida real-time monitoring platformalarini ishlatadi, Xitoy esa Skynet va Sharp Eyes tizimlari orqali keng qamrovli video va sensor monitoringni amalga oshiradi. Ushbu tizimlar jinoyat xavfini real vaqt rejimida aniqlash, resurslarni optimallashtirish va profilaktika choralarini rejalashtirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, geografik axborot tizimlari tegishli statistik dasturiy ta'minot jinoyatchilikda yuqori texnologiya yutuqlaridan foydalanish uchun talablardan biridir. Geografik axborot tizimi (GIS) – bu qoniqarli natijalarga erishish uchun professional xodimlar tomonidan qo'llanilishi kerak bo'lgan kompyuterga asoslangan texnologiyadir [18; 12 b.].

Jinoyatni tahlil qilishda axborot texnologiyalaridan birinchi marta Qo'shma Shtatlarida 40 yildan ortiq vaqt davomida jinoyat ma'lumotlari tahlili yordamida amalga oshirilgan [19; 4 b.].

Aksariyat kriminologlar tomonidan geografik axborot tizimi vositalari shunchaki tarixiy proyeksiya ma'lumotlarini xaritaga kiritish va ularni turli vaqt o'lchovlari bo'yicha xavfli hududlarga klasterlash sifatida tavsiflanadi.

R.Buranova hududlarning elektron "kriminogen vaziyat xaritalari"ni joriy etish va xodimlarning jinoyat joyiga o'z vaqtida yetib borishini, jinoyat haqida to'liq zarur

ma'lumotlarni olish, jinoyatchi va jabrlanuvchi shaxsning xususiyatlari, shuningdek harakatlar algoritmi bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar, kuchlar va vositalarning to'g'ri taqsimlanishini (operativ boshqaruv) ta'minlash uchun maxsus dasturiy ta'minotdan foydalanish taklif qilingan [20; 155 b.].

Mamlakatimizda jinoyatchilikka qarshi kurashish, uni prognoz qilish va oldini olishning zamonaviy strategiyasi, bizning fikrimizcha, quyidagi yo'nalishlarda ishlarni amalga oshirish orqali erishiladi.

*Birinchidan*, jinoyatga qarshi kurashishda iqtisodiyot, ta'lim, tibbiyotni rivojlantirish, mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlash barobarida zamonaviy texnologiyalar yordamida vaziyatni prognozlash va oldini olish davlatning ustuvor vazifasi bo'lishi kerak.

*Ikkinchidan*, belgilangan maqsadlarga erishish maqsadida jinoyatchilikka qarshi kurashda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning ma'naviy-axloqiy va huquqiy jihatlari yuzasidan jamoatchilik muhokamasini boshlash, zamonaviy dasturiy yechimlarning fuqarolarning shaxsiy va jamoat hayotiga tajovuz qilish chegaralari bo'yicha jamoatchilik konsensusini shakllantirish lozim.

*Uchinchidan*, eng yangi texnologik yutuqlarni joriy etishda qonunchilik bazasini shakllantirish.

*To'rtinchidan*, jinoyatchilikka qarshi kurashish, uni prognoz qilish va oldini olishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatiga ilg'or texnologiyalarni joriy etish sohasida sun'iy intellektdan foydalanish bo'yicha xorijiy tajribani o'rganish va joriy etish, raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt yordamida jinoyatchilikka qarshi kurashish, uni prognoz qilish va oldini olishning zamonaviy modellarini ishlab chiqish lozim.

*Beshinchidan*, davlat, ta'lim tashkilotlari imkoniyatlarini birlashtirish orqali jinoyatchilikka qarshi kurashish, uni prognozlash va oldini olishga qaratilgan mahalliy dasturiy yechimlarni ishlab chiqishni rag'batlantirish, tegishli taktik qarorlarni amalga oshirishda ilmiy muassasalar va xususiy sektor bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish kerak.

*Oltinchidan*, barcha darajadagi ichki ishlar organlari xodimlari foydalanishi mumkin bo'lgan, texnik va dasturiy ta'minotga qo'yiladigan talablarning yagona standartiga asoslangan kuchli ma'lumotlar bazalarini yaratish, to'ldirish va integratsiyalash, katta ma'lumotlar tahlili sohasidagi mutaxassislarni xodimlar tarkibiga keng joriy etish.

*Yettinchidan*, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bo'yicha o'quv kurslari orqali ichki ishlar organlari xodimlarining malakasini to'liq oshirish.

*Sakkizinchidan*, "Raqamli kriminologiya" kurslarini jinoyat huquqi mutaxassisligi bo'yicha mutaxassislar tayyorlash bo'yicha o'quv dasturlariga kiritish bilan bog'liq tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

#### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Игорь Васильевич Бестужев-Лада. "Окно в будущее: Современные проблемы социального прогнозирования /Москва : Мысль, 1970". 14 с.
2. Олейник В.А. «Методы криминологического прогнозирования» — Россия, 2008. 15 с.
3. Бабаев Э.Г. «Статистически-математические методы в криминологии» — Ташкент, 2015. 18 с.
4. Левин Л.А. «Основы криминологического моделирования» — Москва, 2012. 11 с.
5. Friedman M. "Mathematical approaches in criminology" — New York, 2010. Page 25.
6. Лунеев В. В. Мотивация преступного поведения. М.: Наука, 1991. 383 с. Стр 312.

7. Buranova R. "O'zbekiston Respublikasidagi jinoyatchilikni kriminologik prognoz qilish" — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi, DSc.31/30.12.2019.Yu.25.01 2025. — 155 bet.
8. Criminality prediction Bc. Veronika Maurerová Ing. Pavel Kordík, Ph.D. Czech technical university in Prague faculty of information Technolog assignment of master's thesis-page 10.
9. Big data policing: The use of big data and algorithms by the Netherlands Police Open Acces Marc Schuilenburg , Melvin Soudijn Policing: A Journal of Policy and Practice, Volume 17, 2023, page 14-15. 1
10. "Real-Time Analytics Dashboards for Decision-Making Using Tableau in Public Sector and Business Intelligence Applications" (Journal of Frontiers in Multidisciplinary Research, 2022).
11. Asit Kumar Das Professor Department of Computer Science and Technology, Indian Institute of Engineering Science and Technology, Crime Prediction Models using Intelligent Computational Approaches- Shibpur, Howrah, India- PhD/R/2017 page 63
12. В.Ингилевич, С.Иванов, Прогнозирование уровня преступности в городской среде с использованием социальных факторов.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ S/1 (6) – 2026*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas'uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).